

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

Namangan muhandislik-pedagogika instituti
«Kasb ta'limi» fakulteti

Kasb ta'limi (Informatika va AT) kafedrası
«Informatika va AT» fanidan

Kurs ishi

Bajardi:

**5-KTIAT-13 guruh talabasi
BEKMIRZAYEVA MAFTUNA**

Namangan – 2015 y.

Mundarija

1.Kirish.....	
2.Asosiy qism	
2.1 Masalani qoyilishi va uning amaliy ahamiyati.....	
2.2 Mevalar va ularning xususiyatlari mavzusida web sahifa yaratish bo'yicha nazariy ma'lumotlar tahlili.....	
2.3 Web sahifani yaratishda foydalanilgan dasturiy vositalarning koniyatlari.....	
2.4 Web sahifani yaratish ketma ketligi.....	
2.5 Yaratilgan web sahifadan foydalanish yo'riqnomasi.....	
3.Internet ma'lumotlari.....	
4.Xulosa.....	
5.Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlar ro'yxati.....	
6.Ilova.....	
.....	

Ilm –sahroda do'st, hayot choraxalarida tayanch,
yolg'iz damlarda yo'ldosh, bahtiyor daqiqalarda raxbar,
qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat,
dushmanlarga qarshi kurashda quroldir.

Bugungi fan texnika taraqqiyotini axborot texnologiyalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Chunki zamonaviy hisoblash mashinalari va ular bilan bog'liq yangiliklar shaxsiy va ijtimoiy hayotimizni biz sezmagan holda qamrab olmoqda. Informatika fani ayni vaqtda inson faoliyatini turli jabhalarida keng qo'llanilmoqda. Bu fan xx asrning ikkinchi yarmida yuzaga keldi. Informatika-axborot (xabar,ma'lumot va xokazo) jamlash va qayta ishlashning qonunlari va usullarini o'rganadi. Informatikaning rivoj topishi axborotni jamlash, qayta o'zida ishlaydigan EHM ning dunyoga kelishi bilan bog'liq. Elektron hisoblash mashinasi yoki kompyuter (kompyuter so'zi inglizcha computer so'zidan olingan bo'lib hisoblovchi degan manoni bildiradi) esa shu axborotni to'plab, qayta ishlaydigan qurilmadir. Dastlab hisoblash quroli sifatida qo'l barmoqlaridan foydalanila boshlangan. Keyinchalik hisoblashni yog'och tayoqchalari yordamida bajarishgan. Xitoy, Hindiston va sharqning boshqa mamlakatlarida hisoblash mashinalarini bajarish uchun qadimgi hisoblash asboblardan biri bo'lgan abak hisoblash taxtasidan foydalanishgan. 1642-yilda fransuz olimi Blez Paskal yaratgan jamlash mashinasi birinchi hisoblash mashinasi deb qabul qilingan. 1623-yilda Shtutgart shahri arxivida professor V.Shikkart kashf etgan hisoblash mashinasining chizmasi topilgan. V Shikkard qurilmasi bevosita qo'shish va ayirish amallarini bajargan. XX asrning 30-40 yillarida ikkilik-o'nlik sistemadan foydalanib elektromagnit reler asosida dasturlanadigan hisoblash mashinalari yaratishga urinib ko'rildi. 1940-yilda amerikalik muxandis G. Eytken bunga erishdi. Uning mashinasi arifmometr bilan 20 ta operator o'rnini bosa oladigan bo'lib katta xonaga joylashgan va ko'p va ko'p miqdorda energiya iste'mol qilar edi. 1942-1945 yillarda dastlab AQSH dagi Pensilvaniya unversitetida elektron lampali raqamli sanoq mashinasi yaratildi va u ENIAK deb nom oldi. EHM ning rivojlanish taraqqiyotini avlodlarga ajratish mumkin. Birinchi avlod mashinalari 1950-yillarda ishlab chiqarilgan bo'lib, asosiy komponentlari elektron lampalardan iborat bo'lgan. EHM lar minglab lampalari ko'plab elektr energiya talab qilgan, katta miqdorda issiqlik ajratib chiqargan va ko'p joyni egallagan. Bu mashinalarning amal bajarish tezligi past, xotira sig'imi kichik bo'lgan. Birinchi avlod mashinalariga quyidagilar kiradi. BESM-1, BESM-2, Strela, M-3 Minsk-1, M-20 va boshqalar. 1960-yillarning boshlarida elektron lampalar o'rniga yarim o'tkazgichlar va ular bazasida yaratilgan transiztorlardan ishlatila boshlandi, mashinaning massasi, o'lchovlari va iste'mol qiladigan energiya va issiqlik ajralishini keskin kamaytirish imkonini berdi. Yarim o'tkazgichli mashinalar EHM ning ikkinchi avlodi bo'ldi. EHM ning ikkinchi avlodiga: Mins-2, Ryazon, BESM-6, Mir, Nairi, Minsk-22, Minsk-32 kabi mashinalar kiradi. 1960-yillarning oxirida uchinchi avlod kompyuterlariga, katta va o'rtacha EHM lar (Ural-11, Ural-12, Ural-15 va yagona tizim yes lari) va SM seriyali EHM lar kiradi. Katta integral sxemalarning paydo bo'lishi sonli axborotlarni qayta ishlab chiqadigan dastur asosida boshqariladigan dastur asosida boshqariladigan

qurilmalar-mikroprosessorlar asosida to'rtinchi avlod mashinalari-mikro EHM lar ishlab chiqarila boshlandi. To'rtinchi avlod mashinalariga sobiq ittifoqda yartilgan EL BRUS - 2, M-10 EHM lari va hozirgi shaxsiy kompyuterlar kiradi.

Informatika fani yuqoridagi bosqichlarni ketma-ket bosib o'tgan holda, bugungi mukammal holatga yetib keldi. Bugungi kunda informatika faniga alohida e'tibor berilmoqda. Maktab, litsey kollej va oliy o'quv yurtlarida alohida fan sifatida o'qitilmoqda. Axborot texnologiyalari shu darajada rivojlanadiki hatto masofadan turib o'qitish tizimlari yo'lga qo'yildi. Oldingi avlod kompyuterlari bilan hozirgi zamon kompyuterlarini ixchamligi, qulayligi, operativ xotirasini kattaligi, bir necha qo'shimcha qurilmalarni mavjudligi, amallarni bajarish tezligi yuqoriligi bilan va boshqa bir qator afzalliklar bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda beshinchi avlod EHM lari ustida ish olib borilyapdi. Ushbu avlod mashinalari oddiy so'zni tushunadigan, rasmlarni ko'ra oladigan, tovushlarni eshita oladigan , sekundiga 1 mlrd atrofida amal bajara oladigan va katta hajmdagi xotiraga ega bo'lgan kompyuter yaratilmoqda.

Informatika sohasini yana rivojlantirish maqsadida , Prezidentimiz hamda Vazirlar mahkamasi tomonidan bir qator qonun va qarorlar , buyrug'lar joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikaning Vazirlar maxkamasining 1992-yil 8-dekabrdagi qarori bilan fan texnika bo'yicha davlat qo'mitasi qoshida axborotlashtirish boshqarmasi tuzildi. 2001-yil Oliy Majlisning V sessiyasida davlatimiz raxbarining nutqida „kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, ularni maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarda hamda oliy o'quv yurtlari dasturlariga va kundalik turmush tarzida joriy etish“ yurtimiz rivojlanishida va yuksak darajaga yetishda eng muhim omillardan biri e'tirof etib o'tildi. Shu sababli Vazirlar mahkamasining 23-may 2001-yilda qabul qilingan 230-sonli qarori, 2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarni rivojlantirish, internet xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishni ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tadbqiq etish chora tadbirlarini olib borishga bag'ishlangan. 2002-yil 6-iyundagi „Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish axborot kommunikasiya texnologiyalarni joriy etish chora tadbirlari to'g'risida“ gi qarorlari qabul qilindi. Shu munosabat bilan respublikamizdagi ta'lim muassasalari kompyuter texnikasi va elektron o'quv qo'llanmalarining yangi avlodi bilan jihozlanishiga e'tibor berilmoqda. 2010-yilda kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Unda telekommunikatsiya va ma'lumotlar uzatishni rivojlantirish resurslaridan foydalanish , internet tarmog'ida o'z saytlarni yaratishning maqsadli yo'nalishlari belgilandi. Oxirgi 3-yil mobaynida kompyuter sanoati xalqaro ko'rsatkichlar bo'yicha ishlashga o'tmoqda. O'zbekistonda kompyuterni jon boshiga hisoblash ko'rsatkichi Hindiston, Xitoydan yuqori va Rossiyaga yaqinlashmoqda.

Yuqoridagi qaror va buyrug'larni izchil amalga oshishi natijasida Informatika fani yanada rivojlandi. Bugungi kunga kelib informatika fani boshqa fanlardan ham yuqoriroq pog'onaga chiqib oldi. Zamonaviy mukammallashtirilgan kompyuterlar orqali juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda masalan: bemorlarga tashxis qo'yishda , o'quvchilarni o'qitishda, va tegishli konsultatsiyalar berishda, matnli ma'lumotni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda, turli xil ma'lumotlarni olishda va h\k larda ish unumdorligini oshirib kelmoqda. Mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoridan

mustaxkam o'rin egallashi uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini hayotimizning barcha jabhalariga keng joriy etish zarur.

2014-yil Prezidentimiz tomonidan „Sog'lom bola yili” deb e'lon qilindi. „Sog'lom bola yili” da Davlat dasturining maqsad va vazifalari hamda uning bajarilishi to'g'risida keng axborot tushintirish ishlari olib borilishini tashkil etish, bunda ommaviy axborot vositalarining shu jumladan elektron ommaviy axborot vositalarining va internet tarmog'ining imkoniyatlari faol ishga tushirildi.

Menga kurs ishi mavzusi qilib „Mevalar va ularning xususiyatlari haqida web sahifa yaratish” berilgan. Yuqoridagi keltirilgan imkoniyatlardan foydalangan holda kurs ishimni mukammal darajada yaratishga harat qilaman. O'ylaymanki men yaratgan web sahifam orqali ko'pchilikka foydali ma'lumotlar berman.

2.1. Masalani qo'yilishi va uning amaliy ahamiyati.

Har qanday oldimizga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun o'z oldimizga bir qator maqsadlarni qo'yib olishimiz kerak bo'ladi. Menga kurs ishi sifatida „Mevalar va ularning xususiyatlari“ mavzusiga oid web sahifa tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Avvalo men bu web sahifani yaratishda Microsoft Office Page dasturidan foydalanib web sahifa yaratish uchun quyidagi masalalarni hal qilish orqali erishaman.

Krish.

Informatika fanining kelib chiqish tarixi; fanning bugungi kundagi holati; sohaga oid prezident va vazirlar mahkamasi tomonidan ijro etilgan qaror va buyrug'lar; fanning rivojlanish istiqbollari, sog'lom bola yilida chiqarilgan fanga oid yangiliklar va o'zgarishlar.

Asosiy qism.

-Masalaning qo'yilishi va uning amaliy ahamiyati. Menga kurs ishi sifatida berilgan topshiriqni bajarishda har bir rejani yoritishda nimalar yozilishi kerakligi hamda uning amaliy ahamiyati haqida bayon etiladi.

-Mevalar va ularning xususiyatlari mavzusida web sahifa yaratish bo'yicha nazariy ma'lumotlar haqida. Bu bosqichda mevalarning shifobaxshligi, xususiyatlari bayon etiladi.

- Web sahifani yaratishda foydalanilgan dasturiy vositalarning imkoniyatlari haqida. Men web sahifamni tayyorlashda Front Page Foto Shop va boshqa dasturlardan foydalanib yaratmoqchiman. Bu bo'limda bir nechta dasturlarni qulayligi va foydali tomonlari bayon etiladi.

-Web sahifani yaratish ketma-ketligi bu bo'limda web sahifani yaratish bosqichlari har qadamda bajarilgan ishlar ketma-ketliklari haqida axborot berib boriladi.

-Yaratilgan web sahifani foydalanish yo'riqnomasi, ya'ni ulardan sahifadan foydalanish bosqichlari va ulardan foydalanishdagi qulayliklar haqida .

-Internet ma'lumotlari. Kurs ishimni yoritishda internetdan olgan ma'lumotlarim yangiliklar haqida.

-Xulosada umumiy fikrlar jamlanib kurs ishi yozishdan olingan umumiy xulosalar.

-Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlar ro'yxati haqida ya'ni web sahifa yaratishda keltirib o'tilgan ma'lumotlar, materiallar, adabiyotlardan yoki internet saytlaridan olinganligi keltirib o'tiladi.

-Ilova bo'limida esa tayyorlangan web sahifaga qo'shimcha sifatida kiritiladi.

Menga berilgan topshiriqni amaliy ahamiyati shundaki web sahifamni yaratish mobaynida serquyosh o'lkamizdagi mevalarni turli xilligi va ularni shifobaxshligi haqida mavzuni yoritdim va bu orqali insonlar o'zlari uchun foydali bo'lgan

ma'lumotlarni olishi mumkin .

2.2. Mevalar va ularning xususiyatlari mavzusida web sahifa yaratish bo'yicha nazariy ma'lumotlar haqida. Bu bosqichda mevalarning shifobaxshligi, xususiyatlari bayon etiladi.



Uzum mevasida radioprotektorli, nurga qarshi, bakteritsid, antioksidant, neyrorag'batlantiruvchi, tonusni ko'taruvchi va boshqa funktsional xususiyatlarga ega kamida 300 ta birikma mavjud. Sizga tanish bo'lgan bioflavanoidlar, monosaxaridlar, pektin moddalari va organik kislotalardan tashqari, uzum tarkibini C, A, B1, B2, B5, B6, B9, E, PP, P vitaminlari, natriy, kalsiy, fosfor, magniy, kaliy, marganets, temir, rux, mis va boshqa ko'plab moddalardan tashkil

topgan haqiqiy "kokteyl" deyish mumkin. Uzun bilan davolash ampeloterapiya deb nomlanadi.



Anjir (*Ficus carica* L.) — tutdosh-lar (anjirgullilar) oilasiga mansub subtropik meva turi. Turkiya, Jazoir, Yevropaning jan.da, AQShda katta may-donlarni egallaydi, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qrimda ham yetishtiriladi. Yovvoyi holda O'rta dengiz bo'yi, Kichik Osiyo, Eron, Shim.-g'arbiy Hindistonda o'sadi. A. juda qadimdan madaniylashtirilgan o'simlik hisoblanadi (Osiyoda 5 ming yildan, Yevropada kamida 2 ming yildan beri). Botanik tavsifi. A. daraxtining bo'yi 4 —

10 m, shoxlari kalin, yoyilib o'sadi, novda, barg va mevasida sutsimon shira bor. Bargi yirik, 3 — 7 bo'lmal, ba'zan bo'lmasiz, to'q yashil, orqasida tuklari bor. Bir yilda 2 — 3 marta gul-laydi (apr. — may, iyun — iyul, avg.). Mayda bir jinsli gullardan iborat to'pguli bo'lajak "meva" ichida bo'lib, mayda blastofaga arilar yordamida changlanadi, ba'zilar esa changlanmasdan (partenogenez) va urug' tugmasdan meva qiladi. Mevasida 20 — 24% qand, 0,5 — 4,2% pektin moddalari, 3,4 — 7,4% kle-chatka, 0,1% gacha organik kislotalar, ka-rozin, kalsiy, temir, fosfor va b. bor. Biologik xususiyatlari. A. asosan bir yillik pishgan novda qalamchalaridan ko'paytiriladi. 2 — 3 yoshdan meva tugib, 7 — 10 yoshda g'arq hosilga kiradi, 50 — 80 yil meva beradi, 150 — 200 yilgacha yashaydi. Bir tupi 50 kg gacha meva qiladi. A. bir mavsumda ikki marta hosil be-radi. Birinchi hosil (xoki anjir) ancha kam bo'lib iyun — iyul oylarida, ik-kinchisi (asosiy) hosil sent. oyida pi-shadi. Xo'jalik ahamiyati. Ho'lligicha yoki qoqi hamda konserva holida iste'mol qilinadi, jem, murabbo tayyorlanadi. Xalq amaliyotida A. bargi uzum va mevalarni quritishda ishqor sifatida, "suti" teri kasalliklarini (kal, so'gal, 522temiratki), chayon va ari chaqqan joylarni davolashda ishlatiladi. Agroteknikasi. A. to'plari sovuqqa chidamsiz bo'lganidan O'zbekiston sharoitida qishda ko'milib, bahorda ochiladi. A. nanga ancha talabchan, yengil va serunum tuproqda yaxshi o'sadi. Sho'rlangan yoki shag'alli tuproqlarda deyarli o'smaydi. A. tupiga 3 — 4 ta aso-siy tanali buta ko'rinishida shakl be-riladi. Yozda bir-ikki marta shu yili chiqqan qalinlashtiruvchi novdalar, g'ovlagan novdalar, qurigan shoxlar ke-sib tashlanadi. Anjirzor bog'lar vege-tatsiya davrida 9—10 marta sug'oriladi. O'zbekistonda kadeta, sariq anjir, qora anjir, chapla va b. navlari ko'p ekila-di. Navlari. Kadota. Mevasi

o'rtacha (35 — 40 g), dumaloq-nok shaklida, sarg'ish, sal tilimli. Eti och sariq, jigarrang tovlanadi, yumshoq, shirin. Tupi 45 — 50 kg hosil beradi. 30% qoqi tushadi, qoqi tarkibida 71 — 72% qand bo'ladi. O'zbekistonning hamma viloyatlari uchun r-nlashtirilgan. Sariq A. Jaydari nav. Mevasi yirik (50 — 60 g), sariq, yassi, sal tilimli. Eti sersuv, yumshoq, shirin. 25% qoqi tushadi, qoqining tarkibida 63 — 70% qand bo'ladi. Tupi 40 — 50 kg hosil beradi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida tarqalgan bo'lib, anjir-zorning 80 — 90% ini tashkil etadi. Qora A. Mevasi o'rtacha (35 — 45 g), nok shaklida, to'q binafsha rangda, tilimli. Eti sarg'ish, yumshoq, shirin. Tupi 40 — 50 kg hosil beradi. 30 — 35% qoqi tushadi, qoqi tarkibida 70 — 72% qand bo'ladi. O'zbekistonning hamma viloyat-lari uchun r-nlashtirilgan. Chapla. Meva-si o'rtacha (35 — 45 g), dumaloq-nok sha-klida, och jigarrang , sal tilimli, siy-rak tuk b-n qoplangan. Eti yumshoq, shi-rin, ichi havol. 28 — 30% qoqi tushadi, qoqi tarkibida 70 — 75% qand bo'ladi.



Qulupnay, yertut — ra'noguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi; rezavor ekin. Yevrosiyo va Amerikada 50 turi ma'lum. Asosan bog' Qulupnay, turi, shuningdek: o'rmon Qulupnayi, muskat ta'mli Qulupnay, virginiya Qulupnayi va chili Qulupnayi. — Qulupnayning birinchi

navlari 18-a. da Niderlandiyada paydo bo'lgan. 2 ame-rika turi — virginiya va chili Qulupnayi Yevropaga olib kelingan. Qulupnay Yer sharining turli iqlimli mintaqalarida — Qutb doirasidan to subtropiklargacha o'stiriladi. O'zbekistonda ko'proq bog' Qulupnayi turi ekiladi. Ildizi popuk ildiz. Tupi o'rtacha shoxlangan, bo'yi 10 sm gacha. Barglari yuraksimon, gullari qalqonsimon to'pgulga yig'ilgan. 2 jinsli oq yoki oqish-sariq, o'zidan changlanadi. May-iyunda pishadi. Mevasi to'q qizil, ba'zan naviga qarab oq (oqpar), 3—5 g dan 20—40 g gacha. Tarkibida 80—90% suv, 7-11% qand, 0,8—1,6% kislota, 1 — 1,7% pek-tin, 0,9—1,2% azotli moddalar, shuningdek, kletchatka, kul, A, V, S vitaminlari va b. bor. Yangiligida yeyiladi, kompot, murabbo qilinadi, sharbat tayyorlanadi. Qulupnay namtalab, yorug'sevar (soya joyda hosil bermaydi), sovuqqa chidamsiz o'simlik. Bir yerda 4— 5 yil o'stiriladi. 3 yilgacha yaxshi hosil beradi. Hosildorligi 80—100 s/ga. Asosan, iyul—avg .da ildiz otib, barg yozgan gajaklari qator orasi 80 sm, tup orasi 25 sm yoki 70x70 sm sxe-mada ko'chat qilib ekiladi (kuzda va bahorda ham ekish mumkin, bunda kechroq hosilga kiradi). Yaxshi ko'chat ikki yillik qulupnayzordan olinadi. qulupnayzor bahorda, o'suv davrida mahalliy va mineral o'g'itlar bilan oziqlantiriladi, qator oralari yumshatiladi, sug'oriladi.

Gilos (*Cerasus avium* L.) — ra'noguldoshlar (atirgullilar oilasi)ga mansub danakli meva daraxti. Yovvoyi holda O'rta va Jan. Yevropa, Eron, Kavkaz, Ukraina, Moldovada uchraydi. Yevropa mamlakatlari, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy, Yaponiya, Ukrainaning jan., Kavkaz, Boltiqbo'yi va O'rta Osiyoda ekiladi.



Gilos daraxtining bo'yi 10—15 m (ba'zan 30 m gacha boradi), shoxlari qalin, yoyilib o'sadi. Bargi cho'ziq-tuxumsimon, to'q yashil. Guli oq, ikki jinsli, gulbandi uzun. Mevasining shakli dumaloq, yuraksimon, eti shirali, sirti tekis. Eng ertagi danakli meva. Tarki-bida 7—15% qand, 0,36—1,1% kislota, vitaminlar, 0,2% oshlovchi va 0,7% gacha pektin moddasi bor. Yangiligida iste'mol qilinadi, kompot, murabbo, tayyorlanadi. Gilos asal beradigan o'simliklar qatoriga kiradi. Danagi mag'zida 30% gacha parfyumeriya sanoatida ishlatiladigan moy bor.

Gilos unumdor, nam, mo'tadil yerlarda yaxshi o'sadi, yorug'lik va issiqlikka talabchan. Ko'chatlari ekilgandan keyin 4—5-yil hosilga kiradi. Daraxti 100 yilgacha yashaydi, tupi 150—300 kg hosil beradi. Asosan mart—apr.da gullaydi, may—iyunda pishadi. Yozi issiq xududlarda yaxshi o'smaydi. Namga talabchan. Asosan mag'allab olchasi yoki yovvoyi olchaga payvandlab ko'paytiriladi. Ko'chatlari sug'orilib, tagi yumshatilib turiladi. Gilos yoshartirish maqsadida 2—3 yillik shoxlari butalib, daraxti qo'shimcha oziqlantiriladi. Gilos uchun ayniqsa yelim oqish kasalligi g'oyat xavfli. Erta bahor va yozda insektitsidlar va fungitsidlarning biron turi bilan 2—3 marta ishlov beriladi.

Navlari. Gilosning 100 ga yaqin navi ma'lum. O'zbekistonda Gilosning Savri surxoni, Qora gilos, Sariq gilos, Bahor, Revershon, Sariq drogana, Chkalov navlari ko'p ekiladi.



Olma (*Malus*) — ra'nodoshlar oilasiga mansub, barg to'kuvchi daraxtlar yoki butalar turkumi; urug'li meva daraxti. Shim. va jan. yarim sharining mo'tadil mintaqalarida O.ning 25—30 turi, jumladan, O'rta va Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo va Kavkazda 10 turi tarqalgan. Ekiladigan mevali daraxtlar orasida maydoni jihatidan birinchi o'rinda turadi. Yalpi olma hosili bo'yicha AQSH (4,8 mln. t), Xitoy (22,01 mln. t) oldingi o'rinlarda turadi (1999). Jahon bo'yicha yalpi hosili 60,2 mln. t ni tashkil etadi (1999). O'zbekistonda —0,4 mln. t. AQSH, Chili, Xitoy, Rossiya, Eron, Turkiya, Fransiya, Italiya mamlakatlarida olmazorlar katta maydonlarni egallaydi.

O'zbekistonda 8 turi yovvoyi holda uchraydi (q. Yovvoyi olma). Dunyo bo'yicha yetishtiriladigan navlarining asosiy qismi xonaki O. (*M.domestica*) turiga kiradi. Past bo'lyi O. (*M.pymila*) turiga kiradigan dusen va paradizkadan mevachilikda payvandtag

sifatida foydalaniladi. O. sovuqqa chidamli, yorugʻsevar va namsevar, tuproq tanlamaydi, lekin unumdor tuproqlarda yuqori hosil beradi. O. daraxti boʻyi 15 m gacha boradi. Oʻzbekistonda O. apr. oyida gullaydi. Guli 5 boʻlakli, gultojibargi oq, pushti, ayrimlari kizil. Mevasi, naviga qarab, iyun—okt.da pishadi. Bir dona mevasi vazni 15 g dan 400 g gacha boradi. Tarkibida (%) fruktoza 6,5—11,8, saharoza 2,5—5,5, organik (olma va limon) kislotalar 0,2—1,6, vitamin S 5—30 mg, pektin, oshlovchi moddalar va b. mavjud. Mevasi yangiligida yeyiladi, qoqi, konserva, murabbo, jem qilinadi. O. urugʻidan hamda payvandlash, parhish qilish yoʻli bilan ildiz bachkilaridan koʻpaytiriladi. Hosildorligi 130—300 s/ga. Daraxti 100 yilgacha yashaydi. Odatda, bogʻga oʻtqazilganidan keyin 4 y. oʻtgach, hosilga kiradi. 40—50 y. moʻl hosil beradi. Koʻchati kuzda va bahorda 30—60 sm chuqurlikda haydalgan yerga ekiladi. Koʻchat oʻtqaziladigan chuqurga 5—6 kg chirigan goʻng, 150 g ammiakli selitra, 200 g superfosfat tuproqqa aralashtirib solinadi. Koʻchatlar 8><8m, 8x6 m, past boʻyli payvandtaglarga ulangalari 4x6 m, 3x5 m, 4x4 m sxemada ekiladi. Yosh daraxtlar 8—12 marta, hosilga kirganlari 4—6 marta su-gʻoriladi, tup va qator oralari yum-shatib turiladi. Hosilga kirgan olmazor gektariga har uch yilda 20—40 t chirigan goʻng va har yili sof holda 120 kg azot, 60—90 kg fosfor, 30 kg kaliy hisobidan oʻgʻitlanadi. Daraxtlar har yili kuzda va bahorda butaladi (q. Butash, Daraxtlarga shakl berish). Oʻrta Osiyoda ekiladigan O. navlari kelib chiqishi boʻyicha quyidagi guruxlarga boʻlinadi: xalq seleksiyasi yoʻli bilan yetishtirilgan Oʻrta Osiyo mahalliy navlari — oq olma, qizil olma, Samarkand olmasi, Namangan olmasi, achchiq olma, qimizak olma, Xorazm olmalari guruhi va b. O.ning mahalliy navlari Oʻzbekistonning tuproq-iklim sharoitiga moslashgan, issiqqa, sovuqqa chidamli. Mevasi shirin, ertapishar; Gʻarbiy Yevropa, Amerika, AQSH navlari — Rozmarin, Mantuaner, Starkrimson, Skarlet, Parmen. Vaynsep va Golden Delishes, Delishes, Jonatan, Borovinka; Ukraina navi — Renet Simerenko; Qrim navlari — kandil, sari sinap (O. ning bu guruh navlari Oʻzbekistonga dastlab 19-a. 2-yarmidan boshlab, Oʻrta Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyin, ruslar tomonidan, soʻngra 20-a.ning 20-yillaridan boshlab Oʻzbekistondagi i.t. muassasalari tavsiyasi bilan kel-tirilgan). Shreder nomidagi Bogdorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti seleksionerlari yetishtirgan yangi navlar — Samarqand aʼlosi; Afrosiyobi, — hosildor, Toshkent borovinkasi, Mehmoniy, Tilla olma, Nafis va b. Bu navlar hosildor, mevasi mahalliy sharoitga moslashgan, koʻrinishi chi-royli, mazali; sovuqqa va issiqqa chidamli.

Zararkunandalari; olma qurti, olma qoʻngʻizi, bitlar, olma kuyasi.

Kasalliklari haqida: q. Bakterial kasalliklar, Virusli kasalliklar.

Nashvati — xalq seleksiyasi. yoʻli bilan yetishtirilgan nok (olmurut) navlari guruhi. Qishki N., kuzgi oq N., chillaki N., yozgi N. kabi navlar shu guruhga oid. Oʻzbekistonda N.ning murut, olmurut deb ataladigan yovvoyi turi — Korjinskiy noki (P. korshinskyi Litv.) togʻ etaklari va yon bagʻirlarida, soylarda oʻsadi. Mevasi dumaloq yoki noksimon-choʻziq. Oʻzbekistonda qadimdan ekib kelinadi. Madaniy N. navlari koʻchatlari yovvoyi nok urugʻlaridan yetishtirilgan paivandtaglarga payvand kdiib yetishtiriladi. 4—6-yili hosilga kiradi. Daraxti bal. 8—12 m. Boshka nok navlariga qaraganda erta gullaydi. Mevasi navyga qarab iyun oxiridan okt. boshlarigacha boʻlgan davrda pisha-di, ogirligi 120—250 g (baʼzan 500—700 g), koʻpchiligi sargʻishkoʻkish,

ay-rimlari rangdor, usti moysimon g'uborli, silliq. Eti och sariq yoki ko'kish-oq, kuvrak, suvli, nordonshirin, urug'i yirik; kechpisharlari mart—aprelgacha saqlanadi. Akad. R. R. Shreder nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik i.t. in-tida N. ning Qishki N. 2, kuzgi Qizil N. navlari chiqarilgan va r-nlashti-rilgan.

Yevropada nok yovvoyi ko'rinishda taxminan 60° sh. k.da tarqalgan. Arealning shimoliy chegarasida - siyrak.

2006-yilda sovuqqa chidamli navlarini muvaffaqiyatli seleksiya qilish natijasida nok Ural va G'arbiy Sibirda 55° sh. k.gacha joylashgan bog' maydonlarida samarali o'stirilmoqda.

Erkin o'suvchi shoxi shakli — piramidaviy yoki yumaloq, quyuqlashishga moyil. Yillik o'sish 30-40 smni tashkil etadi. Qulay sharoitlarda nok yirik o'lchamlarga yetadi — balandligi 5—25 metrgacha va shox diametri 5 metrgacha.

Barglari, qoidaga binoan, to'kiluvchi. Barg joylashuvi 5 qatorlik spiral. Barg keng tuxumsimon shaklda, 2,5—10 sm uzunlikka ega, qisqa uchli; rangi — to'q yashil, yaltiroq, bargning pastki qismi ko'k-yashil, kuzda oltinrang-to'q sariq.

Gullash vaqti va shakli: aprel—may, gullari oq, diametri 3 sm, 5-gulbargli, 3-9 tadan soyabon ko'rinishli panjali. Ginetseyda urug'chilar 2 tadan 5 tagacha. Ularning urug'donlari o'zaro va krujka shaklini oluvchi gulli qo'ndog'i bilan qo'shib o'sadi; kurtakda gulbarglari cherepitsa shaklida joylashadi.

Meva zamburug'lari qalin po'stloq bilan qoplagan.

Nok kurtaklari boshqa daraxt oilalari singari ikki xilda bo'ladi: vegetativ va generativ. Vegetativ kurtaklar kichikroq va o'tkirroq, generativlari — kattaroq va to'mtoqroq. Ikki xil kurtakning o'rtasidagi tashqi farqlari ulardan novda chiqishi chog'idagi ushbu kurtaklarning shakllanish vaqtiga qarab kuchayadi.

Mevasi, qoidaga binoan, — pastki qismi kengaygan cho'zinchoq shaklda, sharsimon mevali navlari ham bor.

Noklarning madaniy navlarining kelib chiqishi bir qator ko'rinishlarining, qisman, *Pyrus achras* Gärtn., *Pyrus persica* Pers., *Pyrus cordata* Desv., *Pyrus elaeagnifolia* Pall.larning gibridlanishi bilan bog'liq deb taxmin qilmoqdalar. Noklar qadimgi



Forsiya, Yunoniston va Rim imperiyasida etishtirilgan Nok bizlarga tarixgacha bo'lgan davrda yetib kelgan. Uning vatani aniq o'rnatilmagan. Yetishtirilgan nok Qadimgi Yunonistondan kelib chiqqan (er. old. 1000 yil oldin). Noklarning har xil navlari manzara sifatida yoki aksari mevali daraxtlar sifatida foydalaniladi.

2005-yilda noklarning jahondagi ishlab chiqarilishi 15 mln tonnani tashkil etdi (AQSh qishloq xo'jaligi vazirligining baholashi). Noklarni yirik ishlab chiqaruvchi Xitoy hisoblanadi.

Malina, buldurg'un (*Rubus*) — ra'noguldoshlar oilasi rubus turkumiga mansub ko'p yillik chala butalar; rezavor meva. Malinaning 120 yovvoyi turi bo'lib, Yevrosiyaning mo'tadil va subtropik mintaqalarida keng tarqalgan. Malinaning madaniy navlari oddiy yoki qizil (*R. idaeus*), dag'al tukli yoki amerika Malinasi (*R. strigosus*), g'arbiy yoki maymunjonsimon Malina (*R. occidentalis*) va b. turlari uchraydi. O'rta Osiyo, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq, AQSH va Yevropa mamlakatlarida o'stiriladi. Ildizi ko'p yillik,



poyasi ikki yillik. Butasi bal. 1 — 1,5 m, barglari toq patsimon, murakkab, ketma-ket joylashgan. Gullari ikki jinsli, o'zidan changlanadi. Mevasi qizil, ba'zan sariq. O'zbekistonda may oxiri — iyun boshidan pisha boshlaydi, remontantli (bir mavsumda qayta yoki ko'p marta gullab, hosil beradigan) navlari avg .ning 2-yarmida ikkinchi marta meva tugadi. Mevasi tarkibida 5,7—11,5% qand, 1—2% organik kislotalar, 9,1 — 44 mg% S vitamini hamda V guruhi vitaminlari, karotin,

xushbo'y moddalar mavjud. Mevasi, asosan, yangiligida yeyiladi, konserva sanoatida qiyom, jem, sharbatlartayyorlanadi. Quritilgan mevasi (damlamasi) tibbiyotda terlatuvchi dori sifatida, sharbati suyuq dorilar ta'mini yaxshilashda ishlatiladi.

Malina ildiz bachkilari, ildizi va qalamchalaridan ko'paytiriladi. Ko'chati o'tqazilgach, 2-yili hosilga kiradi. O'zbekistonda Malina simbag'azlarga ko'tarib o'stiriladi. Hosili tugagach, bir yillik novdalari qoldirilib, ikki yilliklari qirqib tashlanadi. Malina oziq moddalarga boy, sernam, suvni yaxshi o'tkazadigan, yer osti suvlari kamida 1,5 m chuqurlikda bo'lgan yerlarda yaxshi o'sadi. Malina ko'chatlari erta bahorda yoki kech kuzda qator oralig'i 1,5 m, tup oralig'i 50—70 sm sxemada ekiladi. Yoz davomida qator oralari yumshatiladi. 10—12 marta sug'oriladi. Hosildorligi o'rtacha 80—120 s/ga. O'zbekistonda Malinaning Barnaul, Visluxa, Progress, Malboro navlari ekiladi. Kasalliklari: oq dog'lanish, makrosporioz, vilt va b. Zararkunandalari: qo'ng'izlar, bargxo'rlar, shilliqqurt, o'rgimchakkana, qalqondorlar.

Kurash choralari: agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish, g'unchalash davrida va hosil yig'ishtirilganidan keyin 1% li kolloidli oltingugurt eritmasini purkash.



Mandarin (*Citrus reticulata*) — rutadoshlar oilasining sitruslar turkumiga mansub doim yashil daraxtlar va butalar turi; mevali ekin. Yovvoyi turlari ma'lum emas. Mandarin subtropik va tropik (Yaponiya, Xitoy, hududlarda ekiladi.

Ispaniya, Meksika va b.) O'zbekistonda 20-a. ning 70-y.laridan maxsus issikxona va transheyalarda payvanddan o'stirilgan past bo'yli navlari yetishtiriladi. Bu navlar mart oyida gullab okt.da mevasi pishadi. 5—6 yoshda

bir tupi 40 kg meva beradi. Mandarin — doim yashil daraxt, bal. 3 m ga boradi. Tinim davri bilan almashadigan 2—3 o'sish davriga ega. Shox-shabbasi yoyilib usadi, barglari uzunchoqtuxumsimon, to'q yashil, gullari oq mayda, ikki jinsli, xushbo'y. Mandarin may—iyun oylarida gullaydi, mevasi okt—noyab.



da pishadi. Mevasi yassi dumaloq, ba'zan yapaloq, yuzasi biroz g'adir-budir, po'sti qalin, zarg'aldoq, urug'i mayda. Sharbati nordonshirin. Eti to'q sariq, sersuv, 8—10 pallali, vazni 60—80 g. Sharbati tarkibida 2,87—10,5% qand, 0,95—1% kislota (asosan, limon kislota), 25 mg % vitamin S va b. mavjud. Pustila pektin moddasi, efir

moyi va glikozidlar mavjud bo'lib, qandolatchilik sanoatida va efir moyi olishda ishlatiladi. Mandarin sovuqqa chidamli: —6,5° da barglarini, —12° da daraxtini sovuq uradi. Ohak va gumusga boy tuproklarda yuqori hosil olinadi. Mandarin asosan, payvand yo'li bilan ko'paytiriladi (asosan, trifoliatga payvand qilinadi). Ko'chatlar orasi 3—5 m, qator orasi 5—6 m qilib kech kuz va erta bahorda ekiladi. Yezda qator oralari yumshatiladi, sug'oriladi. Mandarin daraxtiga yosh paytida to'g'ri shakl berilsa, hosildorlik yuqori bo'ladi. 10—12 yillik daraxtlardan 1 gektardan 500 s hosil olinadi (bir tupi 30—70 kg meva beradi). Mevasi yangiligida iste'mol qilinadi (murabbo, jem, sharbat) tayyorlanadi (q. Sitrus o'simliklar).

Kasalliklari : fitoftoroz, kalmaraz, antraknoz.

Zararkunandalari: tillarang va qizil kana.

Apel'sin kabi hammamizga ma'lum meva bo'lib, unga juda o'xshab ketsa ham bir biriga qarama-qarshi xususiyatlarga ega. Agar apel'sin ich surish vositasi sifa-tida qo'llanilsa, mandarin - noinfekcion ich ketishda ichaklar harakatini sustlashtirib, ich kelishini davolaydi. Shuningdek, mandarin ish-tahasizlikda ko'l keladi. Tropik mamlakatlarda terining zamburug'li ka-salliklarini yangi uzilgan mandarin sharbatidan kompress qo'yib davolashar ekan.

Banan (Musa) — banansimonlar oilasiga mansub ko'p yillik tropik o'simlik. Vatani Afrika va Osiyoning tropik va subtropik zonalari hamda Malayya arxipelagi. Asosan, Lotin Amerikasi mamlakatlarida o'stiriladi. Bananning bo'yi 15 m gacha boradi, bargi yirik (uz. 4 m gacha, eni 90 sm gacha). Bananning 40 ga yaqin turi bor. Guli qo'sh jinsli. Mevasi rezavor meva. Bir tup mevada 300 tagacha mevasi bor (60 kg gacha). Bir mevasining uz. 15 sm gacha, diametri 3 — 4 sm ga boradi. Sarg'ish, eti oqish, shirin. Etining tarkibida 75 — 76% suv, 14 — 22% qand, 5 — 8% kraxmal, 1,5% gacha protein, 0,3 — 0,6% moy bor. Partenokarpiya usulida (otalanmasdan) meva hosil qiladi, shuning uchun urug'i puch. Banan mevasi xo'lligicha hamda quritilgan holda iste'mol qilinadi. Ko'pchilik turlarining mevasi yeyishga yaramaydi. Banan ildiz bachkilari yordamida ko'payadi. Ayrim turlaridan dengizchilikda qo'llaniladigan arqonlar, baliq

ovlash to'rlari tayyorlashda ishlatiladigan tola (abaka) olinadi. Bananning xushmanzara daraxt sifatida ko'chalar, parklarda va uylarda o'stirilgan turlari ham bor (yapon Banan).

Oxirgi 10 yillikda deyarli hammaga ma'lum bo'lib qolgan, sevib iste'mol qilinadigan tropik mevalardan biridir. Tarkibida kaliy tuzlarini ko'p saqlagani uchun yurak kasalliklarida iste'mol qilish foydalidir, Ammo bu meva shakar va kraxmalga boy bo'lganligi sababli diabet kasalligi bilan og'rigan bemorlar emagani ma'qul.




□

KIVI yoki AKTINIDIYA. Ko'pchiligimizga ma'lum bo'lgan bu meva odatda tortlarni bezatishda qo'llaniladi. Aslida bu mevaning tarkibiy qismi S vitamini (askorbin kislota)ga boy bo'lib, qon tomir kasalliklarda (qon tomir devorini mustaxkamlaydi), gingivitda, ishtahani ochishda qo'llaniladi. Olimlarning aniqlashicha 100 gramm kivi 100-150 mg askorbin kislota bo'lar ekan. Ya'ni 1 dona kivi iste'mol qilish bilan S vitaminiga bo'lgan bir kunlik ehtiyojni

qondirish mumkin. Tropik mamlakatlar aholisi shamollashning birinchi o'lgilari paydo bo'lishi bilanoq 1-2 ta kivi iste'mol qilib, kasallik rivojlanishining oldini olishar ekan.

2.3. dasturiy ta'minot xaqida ma'lumot

Microsoft FrontPage programmasi bilan tanishishni boshlar ekanmiz uning e'tiborga loyiq tomonlarini aytib atishimiz kerak baladi.



Bunday tomonlaridan biri uning fayllarni .htm va .html fayllari qilib yaratishidir. Buning yaxshi tomoni shundaki, xozirgi kunda internet rivojlanib kelmoqda va internetdagi hamma fayllar kengaytmasi Microsoft FrontPage programmasining hosil qiladigan kengaytmalarining aynan azidir. Microsoft FrontPage programmasidan foydalanib biz internet tarmog'i uchun yangi saydlar va provayderlar yaratishimiz mumkin va bu Microsoft FrontPage programmasining eng maqsadga muvofiq tomonlaridan biridir.

Microsoft FrontPage programmasini ochish uchun «Rabochiy stol»da joydashgan «Pusk» tugmachasidan foydalanamiz. «Pusk» tugmachasi bosganimizdan so'ng «Programmo» bo'limiga kelamiz va u erda joylashgan Microsoft FrontPage so'zini ustiga kelib tugmachani o'ng tomonini bosamiz.

Jadvallar tashkil qilish.

Xozirgi kunda jadvallar Web-saxifadagi ma'lumotni tashkil etishning eng kulay vositalaridan biridir; bu sifatda barcha Web- dizaynerlar tomonidan keng ishlatiladi. Kup xollarda jadvallar matnni foomatlash va grafik tasvirlarni joylashtirish masalasini engillashtiradi; bundan tashkari, jadvallar yordamida turli brauzerlarda saxifangizni namoyishi bir xil kurinishga keltirish mumkin, chunki kup brauzerlarda jadvallar bilan ishlash bir xil usulda amalga oshiriladi.

Maslaxat

Agar siz Frontpage muxarririda Word xujjatini ochsangiz, u xolda ushbu xujjatda joylashgan jadvallar HTML formatiga utkaziladi va ular bilan muxarrirning uzida ishlash mumkin.

Frontpage jadvallari tuzilishiga kura Word jadvallariga juda uxshashdir va ular ustidagi barcha amallar xuddi Word da ishlagan kabi bajarishingiz mumkin. Ular matn, grafika, fon tasvirlari, forma, Frontpage komponentlari va boshk. joylashgan yacheykalardan iborat. Bu yacheykalarda xattoki boshka jadvallar xam joylashtirilishi mumkin. Agar sizga tayer jadvalni yacheykasi razmerini uzgartirish, yangi kator kushish yoki uchirish kerak bulsa, u xolda Frontpage muxarririda bu amallarni xech kanday muammosiz bajarishingiz mumkin. Jadvallarni yaratish vaktida siz uning yacheykalari balandligi va kengligi kabi kursatkichlari xakida kaygurmasangiz xam buladi- ma'lumot kushilgani sari razmerlar avtomatik ravishda uzgarib boradi.

Frontpage muxarririda jadvalni ikki usulda yaratish mumkin: uni tugridan-tugri saxifada jadvallar intrumentlar paneli (Table Toolbar) yordamida chizish yoki Table menyusi yordamida joylashtirish. Agar sizga ushbu ikki usuldan kaysi birini kullashni bilmasangiz, tashvishlanmang, bu ikki usulni bitta jadvalga kullashingiz mumkin. Agar siz Table menyusi orkali jadval yaratishingiz mumkin va katorlarni jadvallar instrumentlar paneli yoradamida kushishingiz mumkin

Jadvallar paneli instrumentlari

Frontpage da jadvallar yaratish Microsoft Word dasturida yaratilgani kabi tuziladi. Jadvallar panelini ekranga chikarish uchun View menyusidagi Table Toolbar opsiyasini yoki Table menyusidagi Draw Table opsiyasini tanlash kerak



Bu panel yordamida siz saxifada tugridan-tugri chizishingiz, keyinchalik esa ularning kursatkichlarini uzgartirishingiz mumkin. Panelning chap tomondan birinchi Draw Table (Jadval chizish) tugmachasi joylashgan; odatda bu tugmacha yordamida siz jadvallar chizasiz

1. Table menyusidagi Draw Table opsiyasini tanlang yoki Draw Table tugmachasini bosing; bu xolda sichkoncha kursori kalam kurinishida buladi.

2. Kursorni jadval boshlanadigan joyga kuying, sichkoncha tugmachasini bosib kursorni pastga va ungga siljiting. Saxifani belgilangan xududida jadval chiziladi; ushbu jadvalning kursatkichlarini siz keyinchalik uzgartirishingiz mumkin. Siz jadvalingizni bulgusi kattaligini tasavvur kilishingiz uchun, Muxarrir jadvalning tashki konturini punktir chizik orkali namoyon etadi.

Siz bitta yacheykadan iborat jadval chizdingiz, yacheyka bir kator va bir ustunchadan iborat; shu bilan birga avtomatik ravishda ushbu jadvalning ramkasi chizilgan. Ramkani olib tashlash uchun jadval xossalarini urnatuvchi oynaga uting. Table Properties (Jadval xossalari) dialog oynasi xakida keyinrok kurib utiladi. Sizning jadvalingiz kuyidagi kurinishda bulishi kerak:

1.1 Ruyxatlar tashkil kilish

Ma'lumotni saxifangizda joylashtirib shuni yodda tutingki, ba'zi xollarda ma'lumotni abzatslar bilan emas balki ruyxatlar kurinishida berish kulayrokdir. Ruyxatlar uzun bulinmaydigan abzatlardan ukilishi osonrokdir va shuning uchun ruyxatlarni ishlatilishi saxifalarni chiroylirok kilishi mumkin. Lekin ularni kup ishlatish xam maksadga muvofik emasdir, chunki bu xolda saxifangiz bir xillik va «kuruk» kurinishga kelib kolishi mumkin.

Maslaxat

Rakamlangan ruyxatlarni atributlarini uzgartirish mumkin. Masalan, rakamlash rim rakamlarida yoki xarflar kurinishida bulishi mumkin; rakamlash ixtiyoriy rakam yok xarfdan boshlanishi mumkin.

Barcha tipdagi ruyxatlarni anik kurinishi brauzer tomonidan aniklanadi. Kuyida xar bir tip uchun kiska tavsif keltirilgan; ularning barchasini formatlash panelidagi stillar ruyxatidan topishingiz mumkin:

- Bulleted List (Markerlangan ruyxat). Bunday ruyxatni elemntlari markerlar bilan ta'minlangan. Markerlangan ruyxatlar odatda ma'lum bir ketma-ketliksiz joylashagan logik boglanishga ega ma'lumotni birligini sanab utish uchun ishlatiladi
- Directory List (Kursatkich). Markerlangan ruyxatlarning boshka bir formati. Ayrim brauzerlar bu ruyxatni oddiy ruyxatga nisbatan boshkacharok interpretatsiya kiladi; odatda ushbu kurinishdagi ruyxatlar ruyxat punktlari juda xam kiska bulganda ishlatiladi.
- Menu List (Menyu). Markerlangan ruyxatlarning yana bir turi. Kup brauzerlar tomonidan kulaniladi.
- Numbered List (rakamlangan ruyxat). Ushbu ruyxat tartiblangan punktlardan iboratdir. Odatda ular 1 rakamidan boshlab rakamlanadi. Rakamlangan ruyxatlar ideal vositadir, masalan, amallar ketma-ketligini yozishda ushbu ruyxatlar juda kulaydir.

Ruyxatlar yaratish

Ruyxat yaratish ketma-ketligini kurib utamiz:

1. Frontpage muxarririda saxifani ochamiz, va kursorni ruyxat boshlanadigan joyga olib borib kuyamiz; kursorni abzatsning boshiga, urtasiga yoki oxiriga urnatishingiz mumkin. Agar kursor turgan katorida biror-bir matn bulsa Frontpage ushbu abzatsni ruyxatning birinchi punkti kiladi. Agar yangi ruyxatni boshlash kerak bulsa kursorni bush katorga joylashtiring.

Eslatma

Masalan siz mavjud matnni markerlangan yoki rakamlangan ruyxatga uzgartirishinigiz mumkin.

1. Buning uchun matnni kerakli kismni ajrating va instrumentlar panelidagi tegishli tugmachani bosing.

2. Stillar ruyxatidan Numbered List opsiyasini tanlang

Frontpage yangi ruyxatni birinchi katorini 1 rakami bilan rakamlaydi. Ruyxatni birinchi punktini matnini tering.

3. Biriinchi puntini kiritib bulganingizdan sung <Enter> ni bosing. Muxarrir yangi katorga navbatdagi rakamni kuyadi, shundan sung ushbu katorga yangi matn kiritishingiz mumkin. Bu ishni ruyxat tugaguncha bajaring.

4. Ruyxatni kiritishni <Ctrl>Q<Enter> tugmachalar kombinatsiyasini bosib tugating. Frontpage muxarriri ruyxatidan yangi katorni boshlaydi va kursorni kator boshiga urnatadi.

1.2 Ranglar bilan ishlash

